

«TASDIQLAYMAN»

**Jizzax viloyat hokimligi "Yagona
buyurtmaehi xizmati" Injiniring
kompaniyasi direktori**

X. Xasanov
« » 2022 y.



**“G‘allaorol tumani Qipchoqsuv QFY Naqraj qishlog‘idagi 10-son
OPga qarashli tez tibbiy yordam bo‘limini rekonstruksiya qilish”
obektiga loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun**

L O Y I H A T O P S H I R I G ‘ I

Jizzax sh. 2022 yil.

G'allaorol tumani Qipchoqsuv QFY Naqraj qishlog'idagi 10-son OPga qarashli tez tibbiy yordam bo'limini rekonstruksiya qilish

| T/r | Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yhati | Asosiy ma'lumotlar va talablar tarkibi |
|-----|---|---|
| 1 | Buyurtmachi | Jizzax viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi |
| 2 | Loyihalash uchun asos | "Obod qishloq dasturi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-172-sonli qaroriga asosan. |
| 3 | Ajratilgan limit | 400.0 mln.so'm |
| 4 | Qurilish turi | rekonstruksiya qilish |
| 5 | Moliyalashtirish manbasi | Byudjet mablag'laridan |
| 6 | Bosh loyihalash tashkiloti | Tanlov savdolari orqali aniqlanadi |
| 7 | Bosh pudratchi | Tender savdolari orqali aniqlanadi |
| 8 | Loyihani ishlab chiqish muddati | Shartnomada aniqlanadi |
| 9 | Ob'ektning joylashgan joyi | Jizzax viloyati G'allaorol tumani |
| 10 | Qurilishni boshlash muddati | 2022 yil |
| 11 | Qurilishni tugallash muddati | 2022 yil |
| 12 | Loyihalash navbatlari va bosqichlari | Bir bosqichda |
| 13 | Ob'ektni resurslar bilan ta'minlash | Mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishga ustuvorlik berilishi ishchi loyihada inobatga olinsin. |
| 14 | Qurilish maydoni haqida ma'lumot va rejalashtirish cheklovlari. Maxsus geologik va gidrogeologik xulosalari | Muhandislik qidiruv xulosasiga asosan bajarilsin. Hudud sesmikligi – 7 ball Muzlash chuqurligi – 0.82 m Shamol yuki – 45 kgs/m ² Tomyopma uchun qor yuki -50 kg/m ² |
| 15 | Ob'ektning asosiy ko'rsatkichlari va binoning funksional maqsadiga qo'yiladigan talablar | ShNQ 2.08.02-09 "Jamoat bino va inshootlari" va boshqa me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiq loyiha ishlarini bajarish. Loyihada quyidagilar ko'zda tutilsin: Duoba oilaviy shifokorlik punkti binosini mukammal ta'mirlash 2 ochkoli xojatxona qurish. Oqava suvlar uchun yopiq hovuz qurish. Suv saqlash xonasi qurish |
| 16 | Arxitektura qurilish rejalashtirish va konstruktiv yechimlari, shartlari binoni pardoqlashga qo'yiladigan talablar | Rejalashtirish bo'yicha binolarning maqsadga muvofiq joylashuvi. Shamollatish tizimlari va tabiiy yoritishni hisobga olgan holda ish jarayonini texnologiyasini va funksional guruhlalashni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak. Material-xom ashyolar maksimal darajada O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan materiallardan foydalanish ko'zda tutilsin. Binoning yong'inbardoshlik darajasi –II Tashqi pardoqlash: Fasadlar: sifatli materiallar bilan zamonaviy uslubda va dizaynda ishlab chikish: -Poypesh – tosh bo'laklari yopishtirish |

| | | |
|----|--|---|
| | | <p>-Devor yuzasi tashqi issiqlikdan himoya qatlami bilan qoplash va travertin bilan bo'yoqlash</p> <p>Ichki pardozlar:</p> <p>-Devor yuzasi eski bo'yoqlarni ko'chirib, suvli emulsiya va yog'li bo'yoq bilan bo'yash.</p> <p>Pollar:</p> <p>- Laminat qoplama yotqizish</p> |
| 17 | <p>Konstrukturaviy yechimlar yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar</p> | <p>Loyihalash va konstruktiv yechimlarda zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olish kerak.</p> <p>-Barcha konstruktsiya va materiallar mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak.</p> <p>-Loyixani ishlab chiqishda materiallarga tasirini hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo'llash kerak.</p> <p>-Tanlashda memoriy jixatdan texnologik va energiya tejamkor zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga etibor qaratish kerak.</p> <p>-Loyixa qarorlarini amalga oshirishda maxalliy ishlab chiqarishning mukobil energiyatejamkor manbalaridan foydalanish kerak.</p> |
| 18 | <p>Muhandislik va texnologik jihozlar muhandislik tarmoqlari bilan ta'minlashda loyihaga qo'yiladigan asosiy talablar</p> | <p>Loyihada quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:</p> <p>Isitish va shamollatish:</p> <p>Binoni isitish tizimini loyihalashtirishda qattiq yoqilg'ida ishlaydigan qozonxonasidan foydalanilsin.</p> <p>Quvur ichidagi suvning issiqlik xororati tushishini oldini olish uchun kuvurlarni issiqlik izolyatsiyasini taminlash.</p> <p>Xonadagi xavo haroratini hisobini amaldagi me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiq belgilash.</p> <p>Loyihalashda KMK 2.01.04-97*, KMK 2.01.01-94, KMK 2.04.05-97*, ShNK 2.08-02-09* rioya qilish.</p> <p>Suv ta'minoti va kanalizatsiya:</p> <p>-Texnik shart malumotlariga ko'ra loyiha qilish</p> <p>Suv ta'minoti KMK 2.04.01-98 buyicha bajarilishi kerak.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ichki sovuk suv ta'minoti polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan iborat bo'lishi kerak. Sovuk suv istemolchilariga quvur liniyalari va ochish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan xolda amalga oshirishi va xisoblagichini inobatga olishi kerak. 2. Ichki issik suv ta'minoti tizimi polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi kerak. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun kuvurlarni issiklik izolyatsiyasini ta'minlash. 3. Ichki suv ta'minoti va ichimlik suvi ta'minotini yonginga qarshi suv ta'minoti bilan ta'minlash. Binolarda quvurlarini shaxtalarda yotqizish oralik yopmalar ostiga va osma shiftning (podshivnim potolkom) orkasida amalga shirilishi kerak 4. Texnik shart malumotlariga ko'ra loyiha qilish <p>Kanalizatsiya tizimi KMK 2.04.01-98 ga muvofik amalga oshirilishi kerak. Ichki kanalizatsiya tarmoqli yuqori quvvat va gigenik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayorlanishi kerak. Kanalizatsiya kuvurlarini shaxtalarga yotqizish. Kanalizatsiya tarmoqlarini tashqi kanalizatsiya tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda kanalizatsiya quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini taminlash.</p> |

| | | |
|----|--|---|
| | | <p>Majmuaviy xavfsizlik tizimi: Amaldagi me'yor va talabalarga muvofiq loyihada binoning yongin xabarlash va ogohlantirish tizimi bilan jihozlanishi nazarda tutilishi kerak. Yong'in o'chirish tizimi: Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan himoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan xabarlash va yong'in o'chirish moslamalariga muvofiq ShNQ 2.04.09-07 "Bino va inshootlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalga oshirish kerak. Yong'in xavfsizligi talablari ShNQ 2.01-04 bo'yicha bajarilishi kerak</p> |
| 19 | Energiya samaradorligi | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq ob'ektning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy innovatsion yechimlarni taqdim etish. Lampalarni energiya tejankor lampalar, zamonaviy issiqlik inovatsion materiallari va ikki kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishini ta'minlash. |
| 20 | Qurilish maydonini obodonlashtirish. | Binolardan holi bo'lgan va obodonlashtirish uchun mo'ljallangan qurilish maydonini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ko'zda tutilsin. |
| 21 | Texnologik yechimlar va uskunalar | Buyurtmachi talabiga binoan tayyorlash (ob'ekti umumiy rejasi asosiy binolarning ichki qismi va boshqalar) bajarilsin. |
| 22 | Atrof muhitni muxofaza qilish | Atrof muhitga ta'sir bayonlari (ZVOS) loyahasini ishlab chiqish. |
| 23 | Xarakati cheklangan shaxslar uchun maxsus yo'laklar qurish | ShNQ 2.07.02-07 ni xisobga olgan holda, xarakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar (nogironlar va boshqalar) uchun qulay kirish yo'laklarini taminlansin. |
| 24 | Vazirliklar va idoralar bilan muvofiqlashtirish zarurligi to'g'risida ko'rsatma | Loyixa xujjatlarini belgilangan tartibda barcha tegishli tashkilotlar bilan kelishish. |
| 25 | Loyihalash ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar | loyixa xujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq bo'lishi kerak; - smeta xujjatlarini tasdiklangan standartlarga muvofiq rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bo'yicha muvofiq ishlab chiqish; Loyiha smeta xujjatlari ShNK 1.03.01-2016 "Korxonalar, binolar va inshootlarni kapital tamirlash loyixa smeta xujjatlarini tarkibini, ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlash"ga muvofiq loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish. |
| 26 | Qurilishni tashkil etish loyahasini ishlab chiqish (POS) | O'zbekistan Respublikasida amalda bo'lgan me'yoriy qoidalarga muvofiq ishlab chiqilsin. |
| 27 | Topshirish qabul qilish tartibi | Ishchi loyiha ushbu topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Ishchi loyiha to'rt nusxada qog'oz va bir nusxada elektron shaklda amaldagi standartlar bo'yicha rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak. |

Izoh: Tanlov savdosi natijalariga ko'ra aniqlangan loyiha tashkiloti bilan obyektning joyiga chiqib o'rganishlar natija loyiha topshirig'iga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Tayyorladi:
Jizzax viloyat xokimligi "YaBX" IK bo'lim boshlig'i:



M. Aliyev